



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY MAJLISI QONUNCHILIK PALATASI



12-avgust
2026

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot”

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi

“MAMLAKATIMIZDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA PARLAMENTNING ROLI”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya





IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 258 sahifa.
2026-yil, avgust*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.

KIRISH

EKOLOGIK QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH VA “YASHIL” TARAQQIYOT BORASIDAGI PARLAMENT NAZORATI



Xamzayev Abdushukur Xudoykulovich
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi
O‘zbekiston ekologik partiyasi fraksiyasining rahbari

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Xonimlar va janoblar!

Jahonda kechayotgan iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi, suv resurslari tanqisligi, yerlarning degradatsiyasi va atrof-muhit ifloslanishi kabi ekologik tahdidlar barcha davlatlar oldida umumiy vazifalarni qo‘ymoqda. Bu esa ekologik xavfsizlikni ta‘minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda barqaror rivojlanishning huquqiy asoslarini mustahkamlashni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilashni taqozo etmoqda.

“Yashil” taraqqiyotni ta‘minlash zamon talablariga javob beradigan qonunchilik bazasini shakllantirish, uni muntazam takomillashtirib borish hamda qabul qilingan qonunlar ijrosi ustidan samarali parlament nazoratini ta‘minlash bilan chambarchas bog‘liqdir.

Muhim ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan ekologik qonunchilik samaradorligini oshirish muhim omil hisoblanadi.

So‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta‘minlash va “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini hayotga keng joriy etishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlarning huquqiy poydevorini mustahkamlash hamda ularning ijrosini ta‘minlashda parlamentning o‘rni va mas‘uliyati tobora ortib bormoqda.

Ekologik xavfsizlikni ta‘minlash va “yashil” taraqqiyotga erishish har qanday davlatning puxta o‘ylangan huquqiy siyosatiga bevosita bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, so‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda ekologik sohada qonunchilikni xalqaro standartlar asosida takomillashtirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Eng avvalo, 2023-yilda xalqimizning xohish-istaklari asosida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi muqaddimasidagi «mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko‘paytirishga, hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib...» degan jumlar ham bu borada mamlakatimiz o‘zining aniq va mustahkam pozitsiyasiga ega ekanini anglatadi. Bundan tashqari, Bosh Qomusimizda ijtimoiy, iqtisodiy huquqlar qatori «ekologik huquq» tushunchasi kiritildi.

Xususan, fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqi, tabiiy boyliklarni asrab-avaylash hamda kelgusi avlodlar manfaatlarini ta‘minlash davlatning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilandi.

Keyingi yillarda o‘rmonlardan foydalanish, yaylovlarni muhofaza qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, ekologik audit, gidrometeorologiya, organik mahsulotlar ishlab chiqarish, ichimlik suvi ta‘minoti hamda suv resurslarini boshqarish sohalarida qabul qilingan qonunlar mazkur yo‘nalishda yaxlit huquqiy tizimni shakllantirishga xizmat qildi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ekologik qonunchilikni takomillashtirishda quyidagi yo‘nalishlar ustuvorlik kasb etdi:

birinchidan, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta‘minlash;

ikkinchidan, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va oldini olish, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish;

uchinchidan, yerdan foydalanish va muhofaza qilish;

to‘rtinchidan, yer osti boyliklaridan foydalanish va muhofaza qilish;

beshinchidan, suvdan foydalanish va muhofaza qilish;

oltinchidan, o‘simlik dunyosidan foydalanish va muhofaza qilish;

yettinchidan, hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish;

sakkizinchidan, atmosfera havosini muhofaza qilish qonunchiligi;

to‘qqizinchidan, gidrometeorologiya sohasi.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

2016–2025-yillarning o'zida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida 30 ga yaqin qonun qabul qilinib, ular ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishning zamonaviy tizimini yaratish uchun poydevor bo'ldi.

Jumladan, "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "O'rmon to'g'risida", "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari to'g'risida", "Ekologik audit to'g'risida", "Gidrometeorologiya faoliyati to'g'risida", "Organik mahsulotlar to'g'risida", "Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to'g'risida", "Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida", "Issiqxona gazlarining chiqarilishini cheklash to'g'risida"gi yaxlit va yangi tahrirdagi qonunlar hamda Suv kodeksining qabul qilinishi mamlakatimizda ekologik siyosatning huquqiy asoslarini yangi bosqichga olib chiqdi.

Mazkur qonunlar nafaqat tabiiy resurslarni muhofaza qilishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirdi, balki iqlim o'zgarishiga moslashish, "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, biologik xilma-xillikni asrash hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatining huquqiy poydevorini mustahkamladi.

Bugungi kunda ekologik qonunchilikning asosiy vazifasi faqat tabiatni muhofaza qilish bilan cheklanmaydi. U investitsiya siyosatini shakllantirish, resurslardan samarali foydalanish, "yashil" texnologiyalarni rag'batlantirish, iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish hamda aholining munosib hayot sifatini ta'minlashning muhim huquqiy omiliga aylanmoqda.

Mamlakatimiz xalqaro huquqning teng huquqli subyekti sifatida bir qator xalqaro hujjatlarga qo'shildi.

Xususan:

Qonunchilik palatasi majlislarida hukumat a'zolarining Qonunchilik palatasi deputatlari savollariga javoblarini eshitish — "Hukumat soati";

davlat organlari rahbarlarining o'z faoliyati masalalari yuzasidan axborotini eshitish;

Qonunchilik palatasi tomonidan davlat organlarining mansabdor shaxslariga qonunlar va davlat dasturlarining ijrosi masalalari yuzasidan parlament so'rovi yuborish;

Qonunchilik palatasining tegishli qo'mitasi tomonidan davlat organlari rahbarlarining axborotini eshitish;

qonun hujjatlarining ijrosi holatini va huquqni qo'llash amaliyotini tegishli qo'mita tomonidan o'rganish hamda qonunosti hujjatlarining qabul qilinishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish;

deputatlik so'rovlari yuborish va boshqa shakllarda amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi va uning deputatlari ham mazkur jarayonlarda faol ishtirok etmoqda.

2025-yil davomida Ekologik partiya fraksiyasi tashabbusi bilan ekologik masalalar yuzasidan 2 marotaba hukumat a'zolarining axboroti eshitildi va davlat organlarining mansabdor shaxslariga 3 marotaba parlament so'rovi yuborildi.

Shu bilan birga, fraksiya yig'ilishlarida sohadagi qonunlar va davlat dasturlarining ijrosi yuzasidan 13 marotaba tegishli mansabdor shaxslarning axborotlari eshitildi.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Fraksiyamiz Qonunchilik palatasi deputatlari bilan hamkorlikda kelgusida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonunlarni tizimlashtirish, qonunlarda huquqiy tartibga solish mexanizmlarini aniq belgilashga qaratilgan qonun loyihalari ustida ish olib bormoqda.

Jumladan:

ekologik qonunchilikni tizimlashtirish va kodifikatsiyalashga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya kodeksini maromiga yetkazish;

"Hayvonlarni shafqatsiz munosabatdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini;

"Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Chiqindilar to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Atrof-muhit monitoringi to'g'risida"gi yangi qonun loyihasini ishlab chiqish oldimizda turgan ustuvor vazifalar hisoblanadi.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Xulosa o'rinda aytishimiz mumkinki, Yangi O'zbekistonda ekologik qonunchilikni takomillashtirish va "yashil" taraqqiyotni ta'minlash jarayonida parlament nafaqat qonun qabul qiluvchi oliy vakillik organi, balki qabul qilingan qonunlarning hayotga to'liq va samarali tatbiq etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni amalga oshiruvchi muhim konstitutsiyaviy institut sifatida ham alohida o'rin tutadi.

Ishonchim komilki, mazkur xalqaro konferensiya doirasida bildiriladigan ilmiy yondashuvlar, amaliy takliflar va ilg'or tajribalar ekologik qonunchilikni yanada takomillashtirish, o'zaro tajriba almashish hamda barqaror va "yashil" taraqqiyot maqsadlariga erishish yo'lida muhim muvaffaqiyat maydoni bo'lib xizmat qiladi.

E'tiboringiz uchun rahmat!



MUNDARIJA

AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA EKOLOGIK TA'LIM, JAMOATCHILIK ISHTIROKI VA SHAXSIY JAVOBGARLIK: 2025–2026-YILLARDAGI INSTITUTSIONAL O'ZGARISHLAR TAHLILI.....	16
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich	
BMTNING BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARINI MILLIY DARAJADA AMALGA OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA USTUVOR YO'NALISHLAR.....	24
Teshaboyev To'liqin Zakirovich	
YASHIL IQTISODIYOTNI IQTISODIY VA HUQUQIY QO'LLAB-QUVVATLASH, INSTITUTSIONAL MEXANIZMLAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI.....	31
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna	
TAKOMILLASHTIRISH: YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI	37
Shamsiddin Allayarov	
EKOLOGIYA SOHASIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	45
S. Sh. Utemuratova	
EKOLOGIK BARQARORLIK — YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING MUSTAHKAM POYDEVORI.....	49
G'afforov X. L.	
MENEJMENT VA BIZNES BOSHQARUVIDA EKOLOGIK, YONDASHUV, ESG TAMOIYILLARI, “YASHIL” STRATEGIYA VA KORPORATIV BOSHQARUV MEXANIZMLARI	58
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich	
РОЛЬ ГРУППЫ ДЕПУТАТОВ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ДВИЖЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ	65
Алиханов Борий Батирович Сангинов Саидрасул Сайдакпарович	
YASHIL ISLOHOTLARNI AMALGA OSHIRISH HAMDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA YASHIL PARTIYALARNING GLOBAL AHAMIYATI.....	69
Qo'chqorov Islomjon Nurali o'g'li Xursanov Kamoljon Erkinjon o'g'li	
RESPUBLIKAMIZDA EKOLOGIK SIYOSAT VA XAVFSIZLIK MASALALARI.....	73
Raximov Oybek Raimovich Xofizov Baxriddin Turdievich	
AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA JAMOATCHILIK ISHTIROKI VA TA'LIM IMKONIYATLARI (STEAM YONDASHUVI MISOLIDA).....	76
N. Matkarimova	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR PARLAMENTINI MUHIM DEMOKRATIK INSTITUT SIFATIDA SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI VA ISTIQBOLDAGI REJALAR.....	80
Abdullayev Muxammadqodir Mashxur o'g'li Xushvaqtov Feruzbek Ilxom o'g'li	
СОТРУДНИЧЕСТВО ПАРЛАМЕНТА УЗБЕКИСТАНА С ННО В ПОВЫШЕНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ НАСЕЛЕНИЯ	83
Сангинов Саидрасул Сайдакпарович	
OROLBO'YI MINTAQASIDA «SUV IQTISODIYOTI» VA «YASHIL OBLIGATSIYALAR» (GREEN BONDS) TIZIMINI YANADA RIVOJLANTIRISHDA PARLAMENT NAZORATI VA QONUNCHILIK MEXANIZMLARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	87
Otamuratov Oybek Baxtiyorovich	



INKLYUZIV YONDASHUV ASOSIDA EKOLOGIK TARBIYANI TASHKIL ETISHNING IJTIMOY PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	93
Xodjayeva Mohira Mirzahmadovna	
KORXONALARNING BARQAROR RIVOJLANISH TIZIMIDA EKOLOGIK VA IJTIMOY KO'RSATKICHLAR AUDITI.....	97
Akbarov Azizbek Abdusattarovich	
O'ZBEKISTONDA XALQARO BIZNESNING BARQAROR RIVOJINI TA'MINLASHDA MARKETING VA YASHIL INNOVATSIYALARNING ROLI VA AHAMIYATI.....	103
Sayfullayeva Nigora Fayzulla qizi	
TOZA HUDUDDAN YASHIL TAFAKKURGA — EKOLOGIK ISLOHOTLARNING AMALIY NATIJALARI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)	107
Alimardonova Z. M.	
SUV RESURLARIDAN OQILONA FOYDALANISH — BARQAROR TARAQQIYOT OMILI	111
Jo'rayev Komiljon Begmonovich	
Xudoyqulov Avloqul Nurmanovich	
IQLIM O'ZGARISHIGA MOSLASHISH SHAROITIDA SHAHAR VA SANOAT HUDUDLARINI «YASHIL» ZONALASHTIRISHNING HUQUQIY KAFOLATLARI	114
Berdiqulova Munira Faxriddin qizi	
EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA XALQARO HUQUQIY STANDARTLARNI O'ZBEKISTON QONUNCHILIGIGA IMPLEMENTATSIYA QILISH: XALQARO MAJBURIYATLAR IJROSI USTIDAN PARLAMENT NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	118
Egamberdiyeva Sevara Baxodir qizi	
EKOLOGIK MASALALARDA PARLAMENTLARARO HAMKORLIK VA XALQARO TAJRIBA ALMASHINUVI	123
Ergasheva Nodira Toxir qizi	
IQLIM O'ZGARISHIGA MOSLASHUV SIYOSATIDA FARG'ONA VILOYATINING YEROSTI SUVLARI MONITORINGI.....	127
Abdulxayev Zoxidjon	
O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA PARLAMENT NAZORATINING NATIJADORLIGI: INSTITUTSIONAL MEZONLAR.....	132
Saburova Juldizxan Axmetovna	
O'ZBEKISTONDA IQLIM O'ZGARISHINING AMUDARYO HAVZASI VA OROLBO'YI HUDUDIDAGI SUV RESURLARI HAMDA QISHLOQ XO'JALIGIGA TA'SIRI	137
Mamadiyarov Dilshod Uralovich	
Xodjiyev Alisher Kuldashevich	
IQLIM O'ZGARISHINING ZAYTUN NAVLARINING GULLASHIGA TA'SIRI.....	140
Yormatova D.Y.	
Xaydarkulov S.	
BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARINI AMALGA OSHIRISHDA PARLAMENT NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH	143
Jo'rayeva Shahina Narzullayevna	
IQLIM MUAMMOLARI VA ULARNI YUMSHATISHGA DOIR AMALIY YECHIMLAR.....	146
Mirxoliqova Charos Xabibullaevna	
Qodirova Shahnoza Ziyodulloyevna	
YASHIL BELBOG'LAR NEGA KERAK?.....	149
Yormatova Dilorom Yormatovna	
MAMLAKATIMIZDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA PARLAMENTNING ROLI: XOTIN-QIZLAR ISHTIROKI VA JAMOATCHILIK NAZORATI.....	154
Sharipova Diyora Botirovna	



YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA EKOLOGIK MADANIYAT VA KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI.....	158
Toshturdiyev Nurbek Nurali o'g'li Hakimova Mahbuba	
EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLARNING AHAMIYATI.....	163
Qutlymuratov Baxitbay Xojabayevich	
ARASTUNING ONG VA TABIAT HAQIDAGI TA'LIMOTINING SHARQ FALSAFASIGA TA'SIRI.....	166
Umaraliyeva Gulchexra Baxodirjonovna	
ФОРМИРОВАНИЕ ИНТЕГРИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ ESG-ТРАНСФОРМАЦИИ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВОЧНОЙ ИНДУСТРИИ: ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ И ОЦЕНКА РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ.....	169
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
TALABA-YOŠHLARDA EKOLOGIK-HUQUQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTIONAL MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	172
Habibjonov Izzatbek Dilshodjon o'g'li	
MINTAQAVIY EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA O'RMON FONDI IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH HAMDA PARLAMENT NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	177
Egamberdiyev Shaxzod Baxodir o'g'li	
MARKAZIY O'ZBEKISTON SUV QUSHLARI GELMINTOFAUNASINING HUDUDLAR KESIMIDA TAQSIMLANISHI	182
Soliyeva Gulnoza Daniyarovna	
ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОЛУЧЕНИЯ ТОФУ ИЗ СОЕВОГО МОЛОКА С ПРИМЕНЕНИЕМ РАЗЛИЧНЫХ КОАГУЛЯНТОВ И ОЦЕНКА ЕГО КАЧЕСТВА	185
Ш. А. Ишниязова Д. Нурвафаева К. О. Додаев	
PARIJ IQLIM BITIMI VA BRM 13-MAQSADINI AMALGA OSHIRISHDA PARLAMENT DIPLOMATIYASI: XALQARO MAJBURIYATLARNING MILLIY QONUNCHILIKKA INTEGRATSIYASI.....	188
Abdullayeva Shahlo Shokir qizi Muitov Davron Sabirovich	
FOND BOZORIDA INVESTORLARNING INVESTITSION XULQ-ATVORINI TAKOMILLASHTIRISHDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNING AHAMIYATI	193
Karimova Nurjahan Olim qizi	
EKOLOGIK MADANIYAT — KELAJAK OLDDIDAGI MAS'ULIYAT: AHOLINING EKOLOGIK ONGINI YUKSALTIRISHDA TA'LIM VA TARBIYANING O'RNI.....	197
Rustamova M. M.	
O'ZBEKISTON SHAHARLARIDA KO'KALAMZORLASHTIRISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI: EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA DAVLAT SIYOSATI VA PARLAMENTNING ROLI.....	200
Asomxonova Rayxonaxon Xolova Shoxista Abduvositovna	
O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING O'RNI.....	204
Dadaboyev Husanboy G'ofurovich	
YOŠHLARDA EKOLOGIK VATANPARVARLIK HISSINI SHAKLLANTIRISHNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI	210
Oripov Ahmadjon Muhammadjonovich	



YOSHLARDA EKOLOGIK VATANPARVARLIK HISSINI SHAKLLANTIRISHNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI

Oripov Ahmadjon Muhammadjonovich
Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi Farg'ona
hududiy bo'linmasi bosh mutaxassisi,
Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: chimyon1982@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda O'zbekiston yoshlarida ekologik vatanparvarlik hissini shakllantirishning normativ-huquqiy asoslari tizimli ravishda tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi [1], "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi [2], "Ta'lim to'g'risida"gi [3] va "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi [4] qonunlar, shuningdek, Prezident farmonlari va qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasi qarorlari [5–8] asosida ekologik tarbiya va vatanparvarlik tushunchalarining huquqiy uyg'unligi ochib beriladi. Amaldagi normativ-huquqiy bazani qo'llash jarayonidagi muammolar aniqlanib, uni takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: ekologik vatanparvarlik, normativ-huquqiy asos, ekologik ta'lim va tarbiya, yoshlarga oid davlat siyosati, atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik huquq, fuqarolik tarbiyasi.

Abstract. This thesis provides a systematic analysis of the legal and regulatory foundations for fostering a sense of environmental patriotism among young people in Uzbekistan. Based on the Constitution of the Republic of Uzbekistan [1], the laws "On Nature Protection" [2], "On Education" [3], and "On State Youth Policy" [4], as well as presidential decrees and resolutions and resolutions of the Cabinet of Ministers [5–8], the legal interrelationship between environmental education and patriotism is examined. Problems arising in the implementation of the current legal and regulatory framework are identified, and proposals for its improvement are developed.

Keywords: environmental patriotism, legal and regulatory framework, environmental education and upbringing, state youth policy, environmental protection, environmental law, civic education.

Аннотация. В данном тезисе системно анализируются нормативно-правовые основы формирования чувства экологического патриотизма у молодежи Узбекистана. На основе Конституции Республики Узбекистан [1], законов «Об охране природы» [2], «Об образовании» [3] и «О государственной молодежной политике» [4], а также указов и постановлений Президента и постановлений Кабинета Министров [5–8] раскрывается правовая взаимосвязь экологического воспитания и патриотизма. Выявляются проблемы, возникающие в процессе применения действующей нормативно-правовой базы, и разрабатываются предложения по её совершенствованию.

Ключевые слова: экологический патриотизм, нормативно-правовая основа, экологическое образование и воспитание, государственная молодежная политика, охрана окружающей среды, экологическое право, гражданское воспитание.

KIRISH

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda yosh avlodni ma'naviy barkamol, yurt taqdiriga mas'ul fuqaro sifatida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Zamonaviy sharoitda vatanparvarlik tushunchasi faqat tarixiy-madaniy meros va mudofaa tayyorgarligiga bog'liq holda emas, balki tabiiy boyliklar, ekologik muvozanat va kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyat nuqtayi nazaridan ham talqin etilmoqda.

Shu bois so'nggi yillarda ilmiy adabiyotda "ekologik vatanparvarlik" atamasi keng qo'llanila boshladi va u yoshlarda ona zaminga, uning tabiiy boyliklariga, toza havoga, suvga va bioxilma-xillikka nisbatan ongli, mas'uliyatli munosabatni vatanparvarlik hissining tarkibiy qismi sifatida shakllantirishni anglatadi.

Mazkur hodisaning dolzarbligi, birinchidan, global ekologik xavflar (iqlim o'zgarishi, Orol dengizi fojiasi, chuchuk suv tanqisligi) bilan, ikkinchidan, davlatning yoshlarga oid siyosati va ekologik siyosatining o'zaro uyg'unlashuvi zaruratidan kelib chiqadi.



Maqolaning maqsadi — yoshlarda ekologik vatanparvarlik hissini shakllantirishga yo'naltirilgan mavjud huquqiy-me'yoriy bazani tizimlashtirish, uning tarkibiy darajalarini (konstitutsiyaviy, qonunchilik va qonunosti) aniqlash hamda amaliyotdagi kamchiliklarni belgilab, takomillashtirish yo'nalishlarini taklif etishdan iborat.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. “Ekologik vatanparvarlik” tushunchasining huquqiy-pedagogik mohiyati

Vatanparvarlik — fuqaroning o'z yurtiga, uning tarixi, tili, madaniyati va tabiatiga bo'lgan sadoqatli munosabatini ifodalovchi murakkab ijtimoiy-huquqiy hodisa. Ekologik tarbiya esa shaxsning tabiatga ongli, oqilona va mas'uliyatli munosabatini shakllantirishga qaratilgan maqsadli jarayondir. Ushbu ikki tushunchaning kesishgan nuqtasida “ekologik vatanparvarlik” tushunchasi shakllanadi. U yosh avlodning Vatan tuprog'i, suvi, o'rmonlari, atmosfera havosi va boshqa tabiiy boyliklarini asrab-avaylashni fuqarolik burchi sifatida anglashini bildiradi.

Huquqiy nuqtayi nazardan “ekologik vatanparvarlik” tushunchasi alohida normativ-huquqiy hujjatda mustaqil tushuncha sifatida mustahkamlanmagan. Uning mazmuni ekologik huquqlar, tabiiy resurslarni asrab-avaylash, ekologik ta'lim va tarbiya, yoshlarning ma'naviy-axloqiy kamoloti hamda vatanparvarlik tarbiyasiga oid konstitutsiyaviy va qonunchilik normalarining o'zaro uyg'unligi orqali shakllanadi [1–8].

2. Konstitutsiyaviy asoslar

Huquqiy-me'yoriy tizimning yuqori pog'onasini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tashkil etadi. Konstitutsiyaning 49-moddasiga ko'ra, har kim qulay atrof-muhitga va uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga ega. Mazkur moddada davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishi ham belgilangan [1].

Konstitutsiyaning 79-moddasida davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlashi, shuningdek, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantirishi mustahkamlangan. Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi, ta'lim olish, sog'lig'ini saqlash, uy-joyli bo'lish, ishga joylashish, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirishi uchun shart-sharoitlar yaratadi [1].

Mazkur konstitutsiyaviy normalarning o'zaro uyg'unligi, ya'ni ekologik huquqlarni ta'minlash hamda yoshlarni har tomonlama rivojlantirishga oid davlat majburiyatlarining birligi ekologik vatanparvarlik tarbiyasining asosiy konstitutsiyaviy-huquqiy negizini tashkil etadi [1].

3. Tabiatni muhofaza qilish va ta'lim sohasidagi qonunchilik

O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda 754-XII-son “Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida”gi Qonuni tabiiy muhit sharoitlarini saqlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning huquqiy, iqtisodiy hamda tashkiliy asoslarini belgilaydi. Qonunning maqsadi inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning muvozanatli rivojlanishini, ekologik tizimlar, tabiiy majmualar va ayrim obyektlarning muhofaza qilinishini ta'minlash hamda fuqarolarning qulay atrof-muhitga ega bo'lish huquqini kafolatlashdan iborat [2].

Mazkur Qonunning 4-moddasida tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga erishish prinsiplari qatorida barcha turdagi ta'lim muassasalarida ekologik ta'limning majburiyligi ham belgilangan. Bu norma ekologik bilim va madaniyatni shakllantirishning umumiy huquqiy asoslaridan biri hisoblanadi [2].

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda O'RQ-637-son “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Qonunning 8-moddasiga muvofiq, maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek, umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir [3].

Ushbu norma bevosita “ekologik vatanparvarlik” tushunchasini nazarda tutmasa-da, bolalarni ma'naviy-axloqiy va estetik jihatdan rivojlantirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayoniga ekologik mazmundagi bilim, ko'nikma va qadriyatlarni kiritish uchun umumiy huquqiy asos yaratadi [3].

Ekologik ta'limning amaliy mexanizmlari Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi 434-son qarori bilan tasdiqlangan “O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi”da batafsil belgilangan. Konsepsiyada yosh avlodning ekologik savodxonligini oshirish, ekologik ongi va madaniyatini shakllantirish, ekologik ta'lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etish asosiy maqsadlar sifatida belgilangan [8].

Konsepsiyaning 10-bandida maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyalanuvchilarning ekologik ongini “Ona tabiat” mavzusida ochiq havoda tanishtiruv soatlari o'tkazish, rasmlar chizdirish, she'rlar yod oldirish, mashqlar bajartirish va turli mavzulardagi o'yinlarni tashkil etish orqali shakllantirish nazarda tutilgan. Shuningdek, uning 11-bandida muhim ekologik sanalarga bag'ishlangan ma'rifiy tadbirlarni o'tkazish belgilangan [8].

Shunday qilib, “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun ta'lim-tarbiya jarayonining umumiy huquqiy asoslarini belgilasa, 434-son qaror bilan tasdiqlangan Konsepsiya ekologik ta'lim va tarbiyani amalga oshirishning maxsus pedagogik mexanizmlarini nazarda tutadi [3, 8].



4. Yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi qonunchilik

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi O'RQ-406-son "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni yoshlarga oid davlat siyosatining prinsiplari va asosiy yo'nalishlarini belgilaydi. Qonunning 4-moddasida ma'naviy, axloqiy va madaniy qadriyatlarining ustuvorligi yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy prinsiplaridan biri sifatida mustahkamlangan [4].

Qonunning 5-moddasida yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ularning hayoti va sog'lig'ini saqlash, ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish, ular uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari sifatida belgilangan [4].

Garchi mazkur Qonunda "ekologik vatanparvarlik" tushunchasi alohida qo'llanilmagan bo'lsa-da, yoshlarning ma'naviy, intellektual va axloqiy kamolotini ta'minlashga oid normalar ekologik ong, ekologik mas'uliyat va tabiatga ehtiyotkorona munosabatni shakllantirish uchun umumiy huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi [4].

Ushbu yo'nalishdagi tashkiliy chora-tadbirlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-son "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan mustahkamlangan. Farmonda yoshlarni Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularni sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish, yosh avlodni ilm-fan va innovatsiyalarga keng jalb etish hamda "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari!" g'oyasi atrofida birlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish Yoshlar ishlari agentligining asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan [5].

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 25-martdagi PQ-110-son "«Eko-madaniyat» umummilliy loyihasi doirasida ekologik ta'lim, ilm-fan va targ'ibotni jadallashtirishga oid kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorida ekologik ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan yangi mexanizmlar nazarda tutilgan. Qarorga muvofiq, 2026/2027-o'quv yilidan boshlab "yashil" texnikumlar tizimini tashkil etish, ularda majburiy va tanlov fanlarini joriy etish hamda o'quv jarayonini amaliyot bilan uzviy bog'lash belgilangan [6].

Mazkur chora-tadbirlar yoshlarda ekologik bilim, kasbiy ko'nikma va tabiatga mas'uliyatli munosabatni shakllantirishning institutsional va ta'limiy asoslarini rivojlantirishga xizmat qiladi [6].

5. Ijroiya hokimiyat hujjatlari: farmonlar va qarorlar

Qonunlarda belgilangan umumiy normalar Prezident farmonlari, Prezident qarorlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari orqali aniq tashkiliy va amaliy mexanizmlarga aylantiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi PF-81-son "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi davlat boshqaruvi tizimini transformatsiya qilish, vakolatli davlat organining faoliyatini tashkil etish hamda ekologik madaniyatni oshirishga qaratilgan vazifalar belgilangan [7].

Farmonning 21-bandiga muvofiq, respublika ta'lim muassasalarida yoshlarning tabiatga bo'lgan mehrini uyg'otish va ularda tabiatni muhofaza qilishga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish maqsadida "Yosh ekologlar" harakati doirasida "Tabiatga mehr" innovatsion va intellektual loyihalar tanlovini o'tkazish, ekologik sanalarga bag'ishlangan tadbirlarni tashkil etish, "Yosh ekologlar" harakati safini kengaytirish hamda umumta'lim maktablarining Milliy o'quv dasturiga tabiiy fanlar doirasida jami 132 soatlik "ekosoat" darslarini kiritish vazifalari belgilangan [7].

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi 434-son qarori esa ekologik ta'limni maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimida rivojlantirishning konseptual yo'nalishlarini belgilaydi. Konsepsiyada ekologik bilimlarni ta'lim mazmuniga kiritish, ta'lim oluvchilarning ona tabiatni asrab-avaylash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha mas'uliyatini kuchaytirish, ekologik ta'limning samarali shakl va usullarini ishlab chiqish hamda davlat organlari bilan ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish nazarda tutilgan [8].

Mazkur qonunosti hujjatlari ekologik vatanparvarlik tarbiyasini maktabgacha ta'limdan boshlab umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim bosqichlarida izchil rivojlantirish uchun tashkiliy-huquqiy sharoit yaratadi [6–8].

Shu bilan birga, ekologik ta'lim va tarbiya masalalari maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim bosqichlarida nisbatan batafsil tartibga solingan bo'lsa, oliy ta'lim tashkilotlari hamda yoshlar tashkilotlari faoliyatida ekologik vatanparvarlik tarbiyasini barcha ta'lim yo'nalishlari uchun yagona mezonlar asosida amalga oshirish mexanizmlari yetarlicha aniqlashtirilmagan.

6. Normativ bazaning amaliyotdagi muammolari va takomillashtirish yo'nalishlari

O'tkazilgan tahlil ekologik vatanparvarlik tarbiyasining huquqiy asoslari ta'lim, ekologiya va yoshlarga oid davlat siyosati sohalaridagi bir nechta normativ-huquqiy hujjatlarda tarqoq holda ifodalanganini ko'rsatadi [1–8].

Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda "ekologik vatanparvarlik" tushunchasi mustaqil huquqiy tushuncha sifatida ta'riflanmagan. Ularda mazmunan bir-biriga yaqin bo'lgan "ekologik ong", "ekologik madaniyat",



“ekologik ta’lim”, “ekologik tarbiya”, “vatanparvarlik” va “Vatanga sadoqat” tushunchalari alohida qo’llanilgan [1–8].

Shuningdek:

— oliy ta’lim bosqichida ekologik-vatanparvarlik tarbiyasini barcha ta’lim yo’nalishlari uchun majburiy fanlararo modul sifatida belgilovchi amaldagi asosiy normativ-huquqiy hujjatlarda alohida norma aniqlanmadi;

— ta’lim tashkilotlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va ekologiya sohasidagi vakolatli davlat organlarining ekologik-vatanparvarlik tarbiyasi bo’yicha faoliyatini muvofiqlashtiruvchi yagona kompleks uslubiy hujjat mavjudligi aniqlanmadi;

— ekologik-vatanparvarlik tarbiyasi samaradorligini baholashning yagona mezonlar va natijadorlik ko’rsatkichlari tizimi yetarli darajada shakllantirilmagan.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

— “Ta’lim to’g’risida”gi yoki “Yoshlarga oid davlat siyosati to’g’risida”gi Qonunga “ekologik vatanparvarlik tarbiyasi” tushunchasining huquqiy ta’rifini kiritishga qaratilgan qo’shimcha va o’zgartirishlar loyihasini ishlab chiqish;

— oliy va professional ta’lim tashkilotlarining o’quv rejalariga ekologik-vatanparvarlik mazmunidagi fanlararo modullarni joriy etish tartibini Vazirlar Mahkamasi qarori darajasida belgilash;

— Ekologiya va iqlim o’zgarishi milliy qo’mitasi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Yoshlar ishlari agentligi o’rtasida ekologik ta’lim va vatanparvarlik tarbiyasini rivojlantirish bo’yicha yagona yo’l xaritasini tasdiqlash;

— ekologik-vatanparvarlik tarbiyasining natijadorligini baholash uchun yoshlarning ekologik bilimlari, amaliy ekologik tashabbuslarda ishtiroki, tabiatni muhofaza qilishga doir xulq-atvori va fuqarolik faolligini aks ettiruvchi mezonlar tizimini ishlab chiqish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosaqilibaytganda, O’zbekiston Respublikasida yoshlarda ekologik vatanparvarlik hissinin shakllantirishning huquqiy-me’yoriy asoslari ko’p pog’onali tizimni tashkil etadi: Konstitutsiya darajasidagi umumiy kafolatlardan tortib, sohaviy qonunlar (ta’lim, ekologiya, yoshlar siyosati) va ularning ijrosini ta’minlovchi Prezident farmonlari hamda Vazirlar Mahkamasi qarorlarigacha. Ushbu tizim so’nggi o’n yillikda izchil takomillashib bormoqda va maktabgacha ta’limdan boshlab ekologik tarbiyaning normativ jihatdan ta’minlanganligini ko’rsatadi.

Shu bilan birga, “ekologik vatanparvarlik” tushunchasining yagona huquqiy ta’rifi mavjud emasligi, shuningdek, oliy ta’lim va yoshlar tashkilotlari faoliyatini tartibga solishda ayrim jihatlarning yetarlicha aniqlashtirilmagani normativ bazani yanada takomillashtirish zaruratini ko’rsatadi.

Taklif etilgan chora-tadbirlar ekologik vatanparvarlik tarbiyasini yaxlit, uzluksiz va samarali huquqiy tizimga aylantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: yangi tahrirda, 2023-yil 30-aprelda o’tkazilgan referendumda qabul qilingan // O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining rasmiy portali. URL: <https://constitution.uz/oz>
2. O’zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda 754-XII-son “Tabiatni muhofaza qilish to’g’risida”gi Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-107115>
3. O’zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda O’RQ-637-son “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-5013007>
4. O’zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrda O’RQ-406-son “Yoshlarga oid davlat siyosati to’g’risida”gi Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-3026246>
5. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-son “O’zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/4880189>
6. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 25-martda PQ-110-son “«Eko-madaniyat» umummilliy loyihasi doirasida ekologik ta’lim, ilm-fan va targ’ibotni jadallashtirishga oid kompleks chora-tadbirlar to’g’risida”gi Qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/8100110>
7. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-mayda PF-81-son “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/6479180>
8. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-mayda 434-son “O’zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-4354743>



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Maqsudov Hasan

2026. № 4-maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

